

## TARBIYASI OG'IR BOLALARNI QAYTA TARBIYALASHDA TASVIRIY SAN'ATNI O'RNI

**Imomov Fozil Shakarbek o'g'li**

Guliston davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistri

[fozilimomov68@gmail.com](mailto:fozilimomov68@gmail.com)

***Annotatsiya:** ushbu maqolada tarbiyasi og'ir bolalarni qayta tarbiyalashda tasviriy san'atning o'rni va ahamiyati. Shuningdek, mazkur mavzu bo'yicha ya'ni qayta tarbiyalanayotgan yoshlarni qalbiga san'at va go'zallikni singdirish orqali ularni ijtimoiy hayotga qaytarishni ta'minlash maqsadida vaqti-vaqti bilan maxsus tasviriy san'at mashg'ulotlarini tashkil etish ta'kidlangan.*

***Kalit so'z:** bolalar, o'quv-tarbiya muassasi, tarbiyasi og'ir bolalar, tasviriy san'at, qalb, san'at va go'zallik, singdirish, ijtimoiy hayot, mashg'ulotlar.*

Hozirgi davrimizning eng og'riqli nuqtalaridan biri bo'lmish Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasidagi tarbiyasi og'ir balalarni qayta tarbiyalashda va yurtimiz koriga yarovchi komil inson bo'lib yetishishini taminlash.

Har bir muamoni kelib chiqishi va yechimi bo'lishi hammaga ayon. Xo'sh, bu muammoni kelib chiqishiga nima sabab bo'ldi? Muammolarni kelib chiqishi turli bo'lganidek, buning ham sababi turlicha. Tarbiyasi qiyin bolalarni paydo bo'lishiga asosiy sabablardan biri o'qishga bo'lgan munosabatning buzilishi va salbiy odatlarni paydo bo'lishidir. Shuningdek, bunday munosabatlarni paydo bo'lishi mumkin. Masalan: pedagoglarni malakalarini to'liq tashkil topmaganligi, o'quv uslubining yetarlicha yetkazilmayotganligi, oilada bilimga bo'lgan savodxonlikni kamligi balki umuman yo'qligi, o'quv muhitining yomonligi va boshqalar.

Tarbiyasi og'ir bolalarning kelib chiqishiga yana bir ayanchli holatlardan biri, bu oilada nosog'lom muhitning hukmron bo'lishidir. Oilada ichkilikbozlik, tamaki,

chekish va hattoki narkomaniya kabi salbiy odatlarni borligi. Oilada yetarli imkoniyatlarning mavjud bo'lmashligi sababli, bola nomaqul holatlar bilan yolg'iz kurashish, kechinmalari bilan yashash, o'smir qalbida oilasidagi muhitga norozilik avj olib, ichki qo'zg'olonga aylanadi va engil pul topish yo'liga o'tadi. Ming afsuslar bo'lsinki, bularning hammasi bolalar va o'smirlarni jinoyatchilik yo'lidan yurishga va "Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasi"ga - qayta tarbiyalanuvchilar safiga qo'shilib qolishiga sabab bo'ladi. Agar ularni vaqtida aniqlab mu'ammoni oldini olib, profilaktik chora-tadbirlarini olib bormasak, allbata. Sharq mumtoz adabiyotining namoyondalaridan biri Muslixiddin Sadi Sherozining fikricha, "oila, bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilada asosiy tayanch otadir. U ma'suliyatli tarbiyachidir. Ota o'z bolalarini tarbiyalashi, o'qitishi, hunarga o'rgatishi, mehnat orqali jismonan chiniqtirishi kerak". Sadiy Sheroziy ota-onalarga harakterni hisobga olgan holda "axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashini tavsiya etgan, harakter shakllangach bolaga tasir etmaydi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda bolalarning harakteri 13 yoshgacha to'liq shakllanar ekan. Bu yoshdan keyin tarbiyaga o'rgatish bir muncha qiyin va samarasiz kechadi. Shuning uchun ham qayta tarbiyalash muassasalariga aynan shu yoshdan olib borilar.

Inson ongli va o'zgaruvchan mavjudot qolgan hayvonlardan shunisi bilan farq qiladi. Unda qalb bor, inson qalbi go'zallikga intiladi. Qalb qancha go'zal bo'lsa u hech qachon jinoyatchilik kabi nomaqul illatlardan yiroqda bo'ladi.

Shu qatorda aytishim joizki "Estetik tarbiya"si bolalar va o'smirlarni tarbiyalashning ajralmas tarkibiy qismidir. Estetik tarbiya bu san'atdagi, tabiatdagi, ijtimoiy hayot va turmushdagi go'zalliklarni idrok etish va badiiy didni o'sdirish, ularning qalblarida go'zallikga muhabbatni uyg'otishdir. Estetikani bolaga singdirish uchun dars jarayonlarini bir muncha go'zalroq, qiziqarliroq qilib tashkil etish zarur.

Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasi ta'lim tizimida maxsus tasviriy san'at maashg'ulotlarini tashkil etish, bolalarning badiiy saviyasiyini yanada oshirib, qalbiga go'zallikni joo etish. Bu orqali bolalarga dunyoni qayta anglashga,

hayotni naqadar go‘zal ekanligini anglashga, tabiatga mehrini oshirishga jamiyatga, odamlarga, aralashishga eng asosiysi komil inson bo‘lib yetishishga yordam bergan bo‘lamiz.

Taklif etilayotgan maxsus tasviriy san‘at mashg‘ulotlari mazmun-mohiyati jadvalda aks etirilgan.

<b>№</b>	<b>Mashg‘ulot yuritish tartbi</b>	<b>Soatda</b>
1	Tasviriy san‘atning zaruriy bilim va ko‘nikmalar.	4
2	Ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash, mashxur rassomlar hayoti va ijod namunalari bilan tanishish.	4
3	Tabiatga chiqib tabiat manzaralarini ishlash.	4
4	Bolalarga biz alkogalizim,giyhvandlik, chekish kabi salbiy odatlarga qarshimiz mavzularida rasmlar ishlash.	4
5	Men sevgan kasb mavzusida rasm ishlash	4
6	Eng yaqin do‘stngiz va men mazusida rasm ishlash	4
7	San‘at kallejlari va sanat maktablarida tahsil olayotgan bolalar ishlagan rasmlardan ko‘rgazma o‘tkazish, rassom tomonidan mahorat darisini otkazish	
8	San‘at muzeylariga bolalar ijodiyot uyiga ekuskursiya o‘tkazish.	

Mashg‘ulotlarni bajarishda pedagog va psihologlardan kuchli sabr va malaka talab qilinadi. Mashg‘ulotlar uchun haftasiga 4 soat vaqt ajratish zarur.

1-mashg‘ulotda bolalarga tasviriy san‘atga doir zaruriy bilimlar berib o‘tiladi va ularni qanday qilib amalda qo‘llashni o‘rgatamiz. Bolalar tezroq tushinishlari uchun soddaroq usullar bilan tushuntirish zarur. Negaki, bu sohadan yiroqda bo‘lgan bolalar tushinishlari qiyin kechadi.

2-mashg‘ulotda oldingi olingan bilim va ko‘nikmalarni takrorlanib yanada mustahkamlanadi. Buyuk rassomlar hayotidan qiziqarli ma‘lumotlar so‘zlab beriladi, ijod na‘munalaridan taqdim etiladi. Ularning shu darajaga yetishlarigacha bo‘lgan mashaqatli mehnatini, bosib o‘tgan yo‘larini tasvirlab beriladi. Hayotda hech narsaga mehnatsiz erishib bo‘lmasligini yana bir bor takidlab o‘tamiz.

3-mashg'ulotda bolalarni tabiat qo'yniga olib chiqib tabiat manzaralarini ishlashni so'raladi. Bunda bolalarning kuzatuvchanligi oshadi. Tabiatda quyosh chiqishi, gullarni ochilishi, qushlarni sayrashi bularning barchashi bolalarni qalbida go'zlallikni tushinishni o'rganadi, tabiatdagi turli xil ranglarni ajratishni o'rganadi, borliqni anglashni o'rganadi.

4-mashg'ulotda bolalarni zararli odatlarga qarshi immunitetini tashkil etishga yordam beruvchi bu mashg'ulotda, bolalar chekish, ichish, giyohvandlik zararli odatlarni o'zlari tasavvur qilib tasvirlanadi.

5-mashg'ulotda bolalar kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishini xohlashi shu kasb egasi bo'lish uchun qanday sifatlarga ega bo'lish kerakligi yoki qanday zararli odatlardan vos kechish kerakligini chuqur o'ylab mulohaza yuritishadi. Tanlagan kasbiga yetishish uchun bolalarning hozirgi holati yani qayta tarbiyalanuvchilar safida ekanligi hech ham to'siq bo'lmasliki hozirgi kunda yurt boshimizni ikkinchi imkoniyat berayotganligi haqida ma'lumotlar berib o'tishimiz zarur.

6-mashg'ulot. Ushbu mashg'ulotda yaqin do'stini va o'zini o'rtasidagi o'rtoqlik munosabatini yaxshilash. Barchamizga ma'limki, xalqimizda shunday gap bor "sen menga do'sting kimligini ayt, seni kimligingni aytib beraman". Bolalarning chizgan sur'atlarini tasvirlashini so'raymiz, do'stini shaxsi haqidagi ma'lumotlarga sinchikovlik bilan e'tibor qaratamiz va bu masalada psiholog bilan maslahatlashamiz.

7-mashg'ulot. Ko'chma ko'rgazma tashkil etish. San'at kolleji va san'at maktablarida tahsil olayotgan bolalarning chizgan rasmlarini ko'rgazma orqali bolalarga ko'rsatamiz. Bolalarga bunday natijaga erishish ularning ham qo'llaridan kelishini va buning uchun mehnat qilish kerakligini ta'kidlaymiz. Rassomlar tomonidan mahorat darslari va suhbatni tashkil etish bolalarni qalbida san'atga bo'lgan qiziqishlari yanada oshadi.

8-mashg'ulot. Bolalarni san'at muzeylariga olib borish, muzeydagi mashhur rassomlarni san'at asarlarini yaqindan kuzatish va insonning qo'lidan shunday go'zallikni tasvirlash mumkin ekanligiga amin bo'lishadi. Bunda bolalarni estetik tarbiyasi, badiiy didi o'sadi. Rassomlar asarlaridagi ranglarni go'zalligini,

haykaltaroshlarning yasagan haykallarini shaklu-shamoyillarini takrorlanmasligini ko‘rishadi. Hayotga bo‘lgan qiziqish va dunyoqarashlari yaxshi tomonga o‘zgaradi. Taklif etilayotgan mashg‘ulotlarni psixologlar bilan maslahatlashib ular yodamida bolalarning qalbiga tasviriy san‘at orqali go‘zallik va nafosatni singdirib qayta tarbiyalanuvchilar safidan chiqishlariga yordam berish. Axir aytiladiki, san‘at qablarni g‘uborlardan poklab, unga go‘zallikni joo etadi. Qalbi pok inson esa hech qachon qabix ishlarga qo‘l urmaydi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Komilova N.G‘. “Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent- 2007 105 b
2. Tadjiyeva S.N. Sabirova.A.D. “Oila va bolalar bilan ijtimoiy ish” Kurs o‘tkazish uchun xrestomatiya. Toshkent-2009 320 b